

MURAKKABLASHGAN SODDA GAPLAR
(“O‘TKAN KUNLAR” ASARI MISOLIDA)

Imamova Gulnora Talibovna

JDPU O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi

kafedrası o‘qituvchisi

Po‘latova Feruza O‘zbek tili va adabiyoti

fakulteti 3-bosqich talabasi

feruzapolatova382@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada murakkablashgan sodda gaplar, sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalar: uyushiq bo‘laklar, kirish so‘zlar, kiritmalar, undalmalar haqida ma’lumotlar keltirilib, misollar orqali tahlil qilingan.

Kirish so‘zlar: Murakkablashgan sodda gap, uyushiq bo‘lak, kirish so‘z, kiritma, undalma.

Tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi bo‘lmish pragmatik adresat, adresant va nutq vaziyatini bog‘liqlikda o‘rganadi. Tilda ikki tamoyil, tejamkorlik va ortiqchalik tamoyili mavjud bo‘lib, sodda gaplarning mazmuniy murakkablashuvi tejamkorlik tamoyilining natijasi sifatida ro‘y beradi. Qo‘shma gapda berish mumkin bo‘lgan axborotni sodda gap vositasida berish sodda gap tarkibiy qismining ba’zi bo‘laklar ishtirokiga ko‘ra yuz beradi.

Professor G‘. Abdurahmonov tomonidan ilmiy adabiyotlarga olib kirilgan murakkablashgan sodda gaplar atamasi ostida sodda gaplar bilan qo‘shma gaplar oralig‘idagi gaplar ekanligi ta’kidlandi[1:97]. Tilshunos olim murakkab gap atamasini qo‘shma gapga nisbatan, murakkablashgan gap terminini esa sodda gapga nisbatan qo‘llagan [2:7]. Olim sodda gaplarni murakkablashtiruvchi birliklar sirasiga ajratilgan bo‘lakli gaplar, undalma va kirishlarni kiritadi. A. G‘ulomov va M. Asqarovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” darsligida ham murakkablashtiruvchilarga uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kirish qurilmalar, undalmalarni kiritadilar.

Hamda bunday murakkablashtirish uni sodda gaplar doirasidan chiqarib yubormasligini, shakliy va mazmuniy jihatdan murakkablashuviga sabab bo'lishini ta'kidlaydilar [3:157]. Sodda gaplarda murakkablashuv sintagmatik yoki intonatsion bo'laklarning ishtirokiga ko'ra murakkablashishi mumkin ekanligi H. Boltaboyeva tomonidan qayd etilgan.

Til birliklarining semantikasiga qiziqishning kuchayishi natijasida sodda gaplarning murakkablashuvi masalasiga e'tibor ham kuchaydi. Murakkab mazmunning murakkab shaklda emas, balki sodda shaklda ifodalanishi til vositalarini tejash tamoyilining tilda yaqqol namoyon bo'lishi shakllaridan biri ekanligi tilshunos olimlar tomonidan qayd etiladi [4:69]. Mualliflar sodda gap tarkibiga turli sifatdash, ravishdash, harakat nomi, shart maylidagi fe'lli o'ramlarni kiritish ham shaklan, ham mazmun jihatidan murakkablashishi, bunday holatlarda ikkinchi darajali predikatsiyaga ko'ra gaplar predikativ jamlanish yuzaga kelishi asoslab berildi. Bunday murakkablashtiruvchi vositalarda muayyan propozitsiya ifodalanadi. Tabiiyki, propozitsiyaning birdan ortiq bo'lishi sodda gaplarning mazmunan murakkablashuviga sabab bo'ladi.

Murakkablashgan gaplarning sodda va qo'shma gaplardan farqli o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Murakkablashgan gaplar orqali birgina maqsad ifodalanmay, murakkab fikr o'z ifodasini topadi.

2. Murakkablashgan gapni tashkil etgan bo'laklar gapning umumiy mazmuni bilan izohlanish munosabatida bo'ladi.

3. Murakkablashgan gaplarda ikki xil predikativ birlik, hukm bo'ladi. Bu predikativ birlikning biri asosiy bo'lib, ikkinchisi to'liq bo'lmagan hukmdir. Asosiy hukm gapning umumiy mazmunidan anglashilsa, to'liq bo'lmagan hukm gapning uyushiq, ajratilgan bo'laklari, undalma va kirish bo'laklar orqali ifodalanadi.

4. Murakkablashgan gapni tashkil etgan bo'laklar asosiy gapning umumiy mazmuni bilan munosabatga kirishadi.

5. Murakkablashgan gapni tashkil qiluvchi bo'laklar o'ziga xos intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Bu intonatsiya boshqa gap bo'laklari intonatsiyasiga o'xshamaydi, ular gap bo'laklaridan pauza bilan ajralib turadi.

6. Murakkablashgan gaplarda shakliy va mazmuniy murakkablashuv va munosabat mavjud. Mazmuniy munosabatda ob'ektiv, subektiv, vokativ va modal munosabat o'z ifodasini topadi.

7. Murakkablashgan gap o'ziga xos sintaktik qurilmalar bo'lib, shuning uchun ular sodda va qo'shma gaplardan farqlanadi.

Gap tarkibida bir turdagi bo'laklar birdan ortiq holda qator keladi. Bir turdagi bo'laklar gapning uyushiq bo'laklarini tashkil qiladi. Bunday bo'laklar ishtirok etgan gap uyushiq bo'lakli murakkablashgan sodda gap deyiladi [5:84]. *Tashqarida bir qo'sha sozandalar dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytardilar* (A.Qodiriy). Ushbu gapda qo'llangan dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va soz so'zlari uyushib kelgan. Uyushiq bo'laklar bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi yordamida birikadilar. Misol uchun, *Mana, majlis a'zolari shunaqang'i bir-biravidan o'toq malaklar, parilar edilar*. Ushbu gapda malaklar va parilar so'zlari uyushib kelgan va ot kesim vazifasida kelgan. Uyushiq bo'laklar o'zaro tenglashish, boshqa gap bo'laklari bilan tobelanish asosida sintaktik aloqaga kirishadi [6:85] *Majlisning shoirlari, o'yinchilari, childirma va dutorchilari hozir edi* (A.Qodiriy). Uyushiq bo'lak komponentlari odatda bir xil grammatik shaklda bo'ladi va bir xil sintaktik vazifani bajaradi. Uyushiq bo'laklar biror morfologik format yoki ko'makchi bilan kelishi kerak bo'lsa, ular ba'zan har bir komponentga alohida-alohida qo'shiladi, ba'zan esa eng oxirgi komponentga qo'shiladi. Quyidagi gap misolida tahlil qilamiz. Otabekdagi sukut, hayol, fikr kabi holatlarni yulib, yulqib olib, ular o'rniga chechak donalarini ekib, umid suvlarini sepmoqchi edi. Bu gapda sukut, hayol va fikr so'zlari uyushib kelgan va ushbu uyushiq bo'laklar kabi ko'makchisi bilan qo'llangan. Ushbu gapdagi ko'makchi yuqoridagi qoidaga mos holda eng oxirgi komponentga qo'shilgan. Grammatik shaklning uyushiq bo'laklarning har biriga yoki

faqat oxirgisiga qo‘shilishi bog‘lovchilarning turiga, ularning qo‘llanilish xususiyatiga ham bog‘liqdir. [7:55] Xullas, bir xil sintaktik qiymatga ega bo‘lgan va ular gapning boshqa bo‘lagiga tegishli bo‘lib, shu bo‘lakka nisbatan birdan ortiq gap bo‘laklari uyushiq bo‘laklar sanaladi. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalardan yana biri bu kirish so‘z va kiritmalar. Gap orqali ma’lum axborot ifodalanishi bilan birga, so‘zlovchining shu axborotga munosabati ham ifodalanadi. So‘zlovchining munosabati gapning kesim shakli (mayl shakli, bog‘lamalar va nol shakli) orqali hamda maxsus modal so‘zlar yordamida ifodalanadi. Masalan, albatta, shaksiz, shubhasiz, darhaqiqat, to‘g‘ri, ehtimol, balki, chamasi, taxminan va boshqalar.

So‘zlovchi gap orqali bayon qilayotgan axborotga qanday munosabatda ekanligiga qarab yuqoridagi modal so‘zlardan muvofiq‘ini qo‘llaydi. So‘zlovchining o‘zi bayon etayotgan fikriga ishonch, gumon, achinish kabi munosabatlarni ifodalovchi sintaktik birliklarga kirishlar deyiladi. Kirishlar so‘z va birikma holatida bo‘ladi: *Ishonchim komilki, siz manim bu yaxshilig‘im uchun minnatdorlig‘ qilarsiz.* Ushbu gapdagi ishonchim komilki kirish so‘zi birikma holatida qo‘llangan. Kirishlar gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi. Shuning uchun u boshqa gap bo‘laklaridan farq qiluvchi alohida ohang bilan talaffuz qilinadi va yozuvda vergul bilan ajratiladi [8:523]. Misol uchun quyidagi gap misolida ko‘ramiz: *Ma‘lumki, kishi oynaga boqqanda nechog‘liq aybsiz bo‘lsa ham o‘zini bir kamchiligi orqaliq ko‘radir.* Bu gapdagi ma‘lumki kirish so‘z hisoblanib u gapda boshqa bo‘laklardan vergul bilan ajratilgan. “Kiritma qurilmalar- bunday qurilmalar gapning mazmuniga yoki uning ayrim bo‘laklari ma’nosiga oid qo‘shimcha izoh, ma’lumot beradi. Kiritmalar gap tarkibida nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik munosabatga kirishadi. Kiritmalar intonatsion jihatdan mustaqillikka ega bo‘ladi. Ular biror so‘roqqa javob bo‘lmaydi, semantik vazifa bajarmaydi, gap bo‘lagi bo‘lib hisoblanmaydi. Kiritma qurilmalar tushunilmaydigan yoki tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar (dialektizm, professionalizm, turli atamalar, jargon va argonlar, arxaizm, istorizm va boshqalar) ma’nosini, ayrim so‘zlar talaffuzi va tipologiyasini izohlash, xabar manbaini ko‘rsatish, qo‘shimcha ma’lumotlar berish uchun xizmat qiladi” [9:91]

Misol uchun, *Ammo menga qolsa u xumpar (Otabekni aytadir) Marg'ilonda xotini borlig'ini ham unutib yuborg'an deb o'ylayman*. Ushbu misoldagi Otabekni aytadir birikmasi kiritma birikma vazifasida kelgan. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan olingan yana bir misolni ko'raylik: *Mirzakarimboy boshqalarga maqtanmasa ham (maqtanchoqlikni yomon ko'rar edi) ba'zi vaqt ichida faxrlanardi*. Ushbu gapda qavs ichida berilgan birikma kirish birikma hisoblanadi.

Demak, kirishlar gapdan anglashilayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga so'zlovchining seb'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'usini ifodalasa, kiritmalar esa gap mazmuniga yoki uning biror bo'lagiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beradi va shu tomoni bilan bir-biridan farq qiladi. Undalmalarning ifodalanishi. N. Ahmedovanning fikricha, undalma so'zi sof o'zbekcha so'z bo'lsa ham, murojaat birligi birikmasiga nisbatan tor tushunchani ifodalaydi. "Undalma" semasi esa tartiban undan keyin turadigan va "murojaat" semasi asosida kelib chiqadigan semadir. Undalma terminiga keng ma'noda qaralsa, semantik tarkibida "tinglovchiga murojaat etish orqali uni nimagadir undash, da'vat etish, buyurish, e'tiborni jalb qilish, murojaat qilish, chaqirish yoki chaqiriq" kabi ma'nolar mavjud. Undalma so'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsa-buyumni ko'rsatuvchi so'z yoki so'z birikmasidir. Masalan, *Taqsir, amringizga qarshi tushadig'on joyim yo'q*. Bu gapdagi taqsir so'zi undalma hisoblanib, so'zlovchining fikri shaxsga qaratilgan. Undalma faqat gapning boshidagina emas, gapning o'rtasida ham, oxirida ham kela oladi. Agar u gap boshida kelsa, undan oldin, o'rtada kelsa ikkala tomonidan vergul bilan ajratiladi. Undalma quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

- 1) ot bilan: *Otabek, siz javob beringiz: Akram hoji bilan bo'lg'on majlislarining kimnikida edi?* (A.Qodiriy)
- 2) otlashgan sifat bilan: *Xo'sh, yaxshilar, nima qilmoq darkor?* (A.Qodiriy)
- 3) otlashgan son bilan: *Beshinchilar, davlat imtihonlariga puxta tayyorlaningiz.*
- 4) otlashgan sifatdosh bilan: *Ey gunohsizlarni osdirganlar, bolalarimizni yetim, onalarimizni qon yig'latgan sen emasmisan?* (A.Qodiriy)

5) undov so‘z bilan: *Ey, san bilmaysan.*

6) frazeologizmlar bilan: *Xayr, o‘g‘lim, oq yo‘l bo‘lsin, xayr ko‘zim qorasi!*

Xulosa qilib aytganda, tildagi tejamkorlik tamoyili asosida yuzaga keladigan murakkablashuv hodisasi tilning ifoda imkoniyatlari bilan birga uning paradigmatic imkoniyatlarini ham ko‘rsatib beradi. Sodda gaplarning murakkablashuvi muhim hodisalardan biri bo‘lganligi bilan tadqiqotchilarning tadqiqot obyektiga aylangan, shunday bo‘lsa-da, ba’zi masalalarga hali oydinlik kiritilmaganligi masalaning muhimligidan dalolat beradi. Sodda gaplarni yuzaga keltiruvchi birliklarning polufunksional (vazifasi jihatidan xilma-xillik) xususiyatiga egaligi haqidagi yangi ilmiy-nazariy qarashlar ham tilshunoslar e’tiboridan chetda qolmadi. Ilmiy ahamiyatga molik bo‘lgan bu qarashlarning tarixiy asarlar misolida tadqiq etilishi hali o‘rganilishi lozim bo‘lgan til sathi birliklarining xususiyatlari ko‘pligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov. G. “O‘zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir o‘zbek tili va adabiyoti masalalari”. Toshkent – 1962
2. Boltaboyeva X. “O‘zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar”. Toshkent – 1969
3. Fayzullayev B., Abdullayev T. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Toshkent – 2007
4. Jo‘rayev A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksisi”. Toshkent – 2010.
5. Mahmudov N., Nurmonov A. “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”. O‘qituvchi. Toshkent – 1995
6. Nurmonov A., Sobirov A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslik”. Toshkent – 2013
7. O‘rinboyev. B “O‘zbek adabiy tili” Samarqand-2001
8. G‘ulomov. A, Asqarova. M “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” Toshkent-1987.